



TO'QIMACHILIK, TIKUVCHILIK VA CHARM
SANOATI SOHALARIDA KASBIY MALAKALARNI
RIVOJLANTIRISH BO'YICHA
TARMOQ KENGASHI

TO'QIMACHILIK, TIKUVCHILIK VA CHARM SANOATI SOHASI

TARMOQ MALAKA RAMKASI



TOSHKENT - 2026

“To‘qimachilik, tikuvchilik va charm sanoati sohasi” tarmoq malaka ramkasi 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasi shakli” va Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga asosan To‘qimachilik, tikuvchilik va charm sanoati sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

To'qimachilik, tikuvchilik va charm sanoati sohasi

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

UZ-TMR-2026-T1.0-001



1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu Tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi va MMKga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, To'qimachilik, tikuvchilik va charm sanoati tarmog'i bo'yicha sakkizta malaka darajasini tarmoqda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma (mahorat), mas'uliyat va mustaqillik xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Tarmoq malaka ramkasi to'qimachilik, tikuvchilik va charm sanoati tarmog'ida malaka darajalarining yagona shkalasini belgilaydi, malakalarning qiyoslanishini ta'minlaydi, kasbiy standartlar va mutaxassislar malakasini muvofiqligini tasdiqlash hamda ularning malakasini tan olish tizimi uchun asos hisoblanadi.

To'qimachilik, tikuvchilik va charm yo'nalishi bo'yicha Tarmoq malaka ramkasining asosiy maqsadi to'qimachilik, tikuvchilik va charm sanoati tarmog'ida malaka darajalarining tizimlashtirilgan tavsifini, iqtisodiyotning istiqbollari va ustuvor yo'nalishlarini hamda tarmoqning strategik rivojlanishini hisobga olgan holda Milliy malaka ramkasi asosida mavjud malakalarga qo'yilgan talablarni shakllantirishdan, shuningdek, tarmoqlararo kompetensiyalar va turdosh mashg'ulotlar (malakalar) turlarini ko'rsatgan holda kasblar va lavozimlarni malaka darajalari bo'yicha xaritalashdan iborat.

Tarmoq malaka ramkasining vazifasi keyinchalik kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun to'qimachilik, tikuvchilik va charm sanoati tarmog'idagi joriy va istiqbolli texnologiyalarni hisobga olgan holda ishchilarning funksional xatti-harakatlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari va bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashdan iborat.

Ushbu Tarmoq malaka ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

guruh – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT (2.1-tahrir) bo'yicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini o'z ichiga olgan faoliyat turi;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

kichik sinf – sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o'rtacha darajada (tor doirada) aniqlangan turlarini ifodalovchi faoliyat turi.

Mazkur tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishga asos bo'lgan qonunlar, qarorlar, normativ hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-dekabr "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–342-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-sentabr "Charm-poyabzal sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4453-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-iyun "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4763-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 30-sentabr "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-fevral "Charm-poyabzal sanoatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-97-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-mart "Kasbiy ta'lim tizimini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-132-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "Kasbiy malakalarni rivojlantirish tizimini tashkil etish va boshqarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-369-son Qarori.

Asosiy qisqartmalar.

MMR– Milliy malakalar ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT– O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

m/d – malaka darajasi;

CAD – Computer-Aided Design;

CAM – Computer-Aided Manufacturing;

ASSOMAC – Associazione Nazionale Costruttori Italiani di Macchine e Accessori per Calzature, Pelletteria e Conceria;

GIZ – German Agency for International Cooperation.

2. Tarmoq malaka ramkasining pasporti

To'qimachilik, tikuvchilik va charm sanoati – xom tolalarni qayta ishlashdan boshlab, ipkalava ishlab chiqarish, matolarni to'qish, bo'yash, pardozlash, tayyor kiyimkechak, poyabzal hamda charm buyumlar yaratishgacha bo'lgan to'liq texnologik zanjirni qamrab oluvchi yirik sanoat tarmoqlaridan biridir. Mazkur soha nafaqat ishlab chiqarish jarayonlari, balki zamonaviy uskunalar, avtomatlashtirilgan texnologiyalar, sifat nazorati tizimlari va logistika jarayonlari bilan chambarchas bog'liq.

Ushbu sohada tolalarni birlamchi qayta ishlash, ip yigirish, to'qish va trikotaj jarayonlari, matolarni bo'yash va finisaj ishlari, kiyim va poyabzal konstruksiyasi, modellash, tikuvchilik texnologiyalari, charmni qayta ishlash, sifat menejmenti, ishlab chiqarishni rejalashtirish va eksport jarayonlarini boshqarish kabi yo'nalishlar mujassam.

To'qimachilik va charm sanoati mamlakatning sanoat salohiyatini oshirish, eksport hajmini kengaytirish, ichki bozorni sifatli mahsulot bilan ta'minlash, ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega.

Ushbu sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislar — to'qimachilik texnologlari, ip yigiruvchilar, to'quvchilar, trikotaj operatorlari, bo'yash va pardozlash texnologlari, kiyim konstruktorimodellari, tikuvchilar, bichuvchilar, charmni qayta ishlash texnologlari, poyabzal ishlab chiqarish ustalari, sifat nazorati inspektorlari, ishlab chiqarish dispetcherlari hamda mehnat xavfsizligi bo'yicha mutaxassislardir.

To'qimachilik, tikuvchilik va charm sanoati xalqaro standartlar hamda milliy texnik reglamentlar asosida tashkil etilib, sifat, xavfsizlik, ekologik barqarorlik, energiya samaradorligi va innovatsion texnologiyalarni joriy etish tamoyillariga tayanadi.

To'qimachilik, tikuvchilik va charm sanoati bo'yicha tarmoq malaka ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan:

C – Ishlab chiqaradigan sanoat

O'zbekiston Respublikasida mazkur soha bo'yicha TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi ga muvofiq quyidagi faoliyat turlarini qamrab oladi:

T/r	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1	C Ishlab chiqaradigan sanoat	13 To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	13.1 To'qimachilik tolalarini tayyorlash va yigirish	13.10 To'qimachilik tolalarini tayyorlash va yigirish	13.10.1 Paxta tolalarini tayyorlash va yigirish (paxta tozalash korxonalaridan tashqari)
					13.10.2 Jun tolalarni tayyorlash va yigirish

					13.10.3 Ipak tolalarini tayyorlash va yigirish
					13.10.4 Paxta tolalarini tayyorlash va yigirish (paxta tozalash korxonalari uchun)
					13.10.9 Boshqa tolalarni tayyorlash va yigirish
					13.20.1 Ip gazlama ishlab chiqarish
					13.20.2 Jun gazlama ishlab chiqarish
					13.20.3 Ipak gazlama ishlab chiqarish
					13.20.9 Boshqa gazlamalar ishlab chiqarish
			13.2 To'quvchilik sanoati	13.20 To'quvchilik sanoati	
			13.3 To'qimachilik mahsulotlarini bezash	13.30 To'qimachilik mahsulotlarini bezash	13.30.0 To'qimachilik mahsulotlarini bezash
			13.9 Boshqa to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	13.91 To'qilgan va trikotaj polotno ishlab chiqarish	13.91.0 To'qilgan va trikotaj polotno ishlab chiqarish
			14.1 To'qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish	14.10 To'qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish	14.10.0 To'qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish
				14.21 Ustki kiyimlar ishlab chiqarish	14.21.0 Ustki kiyimlar ishlab chiqarish
				14.22 Ichki kiyimlar ishlab chiqarish	14.22.0 Ichki kiyimlar ishlab chiqarish
				14.23 Korjomalar ishlab chiqarish	14.23.0 Korjomalar ishlab chiqarish
		14 Kiyim ishlab chiqarish	14.2 Boshqa kiyimkechak va aksesuarlar ishlab chiqarish		

				14.24 Charmdan va mo'ynali kiyimlar ishlab chiqarish	14.24.0 Charmdan va mo'ynali kiyimlar ishlab chiqarish
				14.29 Boshqa toifalarga kiritilmagan kiyimlar va aksesuarlar ishlab chiqarish	14.29.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan kiyimlar va aksesuarlar ishlab chiqarish
		15 Teri va unga tegishli boshqa materiallardan mahsulotlar ishlab chiqarish	15.1 Teri va mo'ynani oshlash, bo'yash, ishlov berish; chemodanlar, sumkalar, egar va jabduqlar ishlab chiqarish	15.11 Teri va mo'ynani oshlash, ishlov berish, bo'yash	15.11.0 Teri va mo'ynani oshlash, ishlov berish, bo'yash
				15.12 Har qanday materialdan chemodanlar, sumkalar, egar va jabduqlar ishlab chiqarish	15.12.0 Har qanday materialdan chemodanlar, sumkalar, egar va jabduqlar ishlab chiqarish
			15.2 Poyafzal ishlab chiqarish	15.20 Poyafzal ishlab chiqarish	15.20.0 Poyafzal ishlab chiqarish

TMR quyidagi kasbiy guruhlar va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan:

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1	21497	Charm, poyabzal va yengil sanoat muhandislari
2	21631	Sanoat mahsulotlari dizaynerlari
3	21632	Charm, poyabzal va yengil sanoat dizaynerlari
4	73172	To'quv va tabiiy tolalardan badiiy buyumlar tayyorlovchilar
5	73181	Gilam to'quvchilar
6	73182	Matolar va kiyim buyumlarini ishlab chiqaruvchilar va qayta tiklovchilar
7	73183	Charm va mo'ynadan buyumlar ishlab chiqaruvchilar va qayta tiklovchilar
8	73189	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan to'qimachilik, teri, charm va shunga o'xshash materiallardan badiiy buyumlar tayyorlovchi ishchilar, b.g.k.
9	75310	Kiyim tikuvchilar, mo'ynachilar va bosh kiyim tikuvchilari

10	75320	Andozalar tayyorlovchilar va bichuvchilar
11	75330	To'quvchilar, kashtado'zlar va turdosh kasblar ishchilari
12	75351	Charm-mo'yna xomashyosiga ishlov beruvchilar
13	75352	Charm va mo'yna ishlab chiqaruvchilar
14	75353	Mo'ynado'zlar
15	75359	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan charm-mo'yna xomashyosiga ishlov beruvchilar, oshlovchilar va mo'ynado'zlar, b.g.k.
16	75360	Poyabzalchilar va turdosh buyumlarni tayyorlovchilar
17	81315	Sintetik tola ishlab chiqarish operatorlari
18	81511	Tola tayyorlash dastgohlariga xizmat ko'rsatuvchi operatorlar
19	81512	Yigiruv va kalavalash uskunalarga xizmat ko'rsatuvchi operatorlar
20	81519	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan tola tayyorlash dastgohlari, yigiruv va kalavalash uskunalarga xizmat ko'rsatuvchi operatorlar, b.g.k.
21	81521	To'qimachilik dastgohlari operatorlari
22	81522	Trikotaj dastgohlari operatorlari
23	81529	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan to'qimachilik va trikotaj dastgohlari operatorlari, b.g.k.
24	81530	Tikuv dastgohlari operatorlari
25	81541	Matolarni oqartirish operatorlari
26	81542	Matolarni tozalash uskunalarga xizmat ko'rsatuvchi operatorlar
27	81549	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan oqartirish, bo'yash, xomashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni tozalash uskunalarga xizmat ko'rsatuvchi operatorlar, b.g.k.
28	81551	Teri va mo'ynaga ishlov berish qurilmalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha operatorlar
29	81552	Mo'ynaga ishlov berish qurilmalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha operatorlar
30	81559	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan teri va mo'ynaga ishlov berish qurilmalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha operatorlar, b.g.k.
31	81560	Poyabzal va galantereya buyumlari tayyorlash qurilmalariga xizmat ko'rsatuvchi operatorlar
32	81590	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan to'qimachilik, mo'yna va charm buyumlar ishlab chiqarish uchun uskunalariga xizmat ko'rsatuvchi operatorlar, b.g.k.
33	93293	Yengil va to'qimachilik sanoatida malakasiz ishchilar

3. Tarmoq tahlili

O'zbekiston Respublikasida to'qimachilik, tikuvchilik va charm sanoatining rivojlanish holati, istiqbollari hamda kasbiy malakalar transformatsiyasi

O'zbekiston Respublikasida to'qimachilik, tikuvchilik va charm sanoati mamlakat iqtisodiyotining eksportga yo'naltirilgan eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohalar nafaqat yalpi ichki mahsulot hajmini oshirishda, balki bandlikni ta'minlash, hududlarni rivojlantirish, ayollar va yoshlarni ish bilan ta'minlashda ham muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda to'qimachilik va charm sanoati mamlakatning sanoat ishlab chiqarishidagi yetakchi

yoʻnalishlaridan biri boʻlib, ichki bozor bilan bir qatorda Rossiya, Turkiya, Xitoy, Yevropa Ittifoqi davlatlari va Markaziy Osiyo bozorlariga eksport qilinmoqda.

Oʻzbekiston jahonda yirik paxta yetishtiruvchi davlatlardan biri boʻlib, bu toʻqimachilik sanoatining barqaror rivojlanishi uchun mustahkam xomashyo bazasini yaratadi. Soʻnggi yillarda paxtani chuqur qayta ishlashga oʻtish natijasida mamlakatda toʻliq ishlab chiqarish zanjiri shakllandi: paxta tozalash, ip yigirish, toʻqimachilik matolari ishlab chiqarish, boʻyash, tikuvchilik, trikotaj hamda tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bosqichlari tizimli yoʻlga qoʻyildi.

Bugungi kunda Toshkent, Namangan, Andijon, Fargʻona, Samarqand va Buxoro viloyatlarida zamonaviy toʻqimachilik klasterlari va yirik ishlab chiqarish majmualari faoliyat yuritmoqda. Tayyor trikotaj mahsulotlari, gazlamalar, kiyim-kechak va texnik toʻqimachilik mahsulotlari eksporti muntazam ravishda oshib bormoqda.

Soʻnggi yillarda paxta yetishtirish va uni erkin sotishga ruxsat berilishi, xomashyoni majburiy sotib olish tizimidan voz kechilishi, toʻqimachilik klasterlari faoliyatining yoʻlga qoʻyilishi soha rivojiga kuchli turtki berdi. Chet ellik investorlar uchun maxsus tekstil zonalarining tashkil etilishi, "Uztextileprom" uyushmasi orqali investitsiyalarni jalb etish, eksportga yoʻnaltirilgan ishlab chiqarishni qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilishi toʻqimachilik sanoatini global bozorlarga moslashtirmoqda.

Oʻzbekistonda charm sanoati hayvon terisini qayta ishlash, tozalash, boʻyash, tayyor charm mahsulotlarini ishlab chiqarish, poyabzal, sumkalar, kiyim-kechak va aksessuarlar tayyorlash yoʻnalishlarini qamrab oladi. Mazkur mahsulotlar Rossiya, Qozogʻiston, Italiya, Turkiya va boshqa davlatlarga eksport qilinmoqda.

Mamlakatda chorvachilik salohiyati mavjud boʻlsa-da, charmni chuqur qayta ishlash darajasi hali toʻliq yoʻlga qoʻyilmagan. Shu bois "Uzcharmsanoat" uyushmasi tomonidan ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, eksportbop mahsulotlar ulushini oshirish boʻyicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Soʻnggi yillarda toʻqimachilik va charm sanoatida eksport hajmlari sezilarli darajada oshdi, tayyor mahsulotlar ulushi xomashyoga nisbatan koʻpaydi, xalqaro sifat standartlariga mos keladigan korxonalar soni ortdi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar global qiymat zanjirlariga integratsiyalashib bormoqda.

Ayrim hududlarda zamonaviy texnologiyalarning yetishmasligi, mahalliy brendlarning marketing imkoniyatlarining pastligi, qayta ishlash chuqurligining yetarli emasligi (ayniqsa charm sanoatida) mavjud muammolar sifatida saqlanib qolmoqda.

Iqtisodiy koʻrsatkichlar (2025-yil taxminiy).

Toʻqimachilik sanoati eksporti – 3,0 mlrd AQSH dollari atrofida.

Charm sanoati eksporti – 500 mln AQSH dollaridan ortiq.

Bandlik: toʻqimachilik sohasida 400 mingdan ortiq, charm sanoatida 50 mingga yaqin xodim mehnat qilmoqda.

Kadrlar tayyorlash va ta'lim muassasalari.

O'zbekistonda to'qimachilik va charm sanoati uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimi oliy ta'lim, kasb-hunar ta'limi hamda xalqaro hamkorlik dasturlari orqali rivojlantirilmoqda.

Yetakchi oliy ta'lim muassasalari.

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti (TTYSI) – 1932-yilda tashkil etilgan bo'lib, paxta sanoati texnologiyasi, yengil sanoat texnologiyasi, avtomatlashtirish, dizayn va raqamli injiniring yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydi. Institut Germaniya, Belgiya, Rossiya, Gretsiya va boshqa davlatlarning yetakchi universitetlari bilan hamkorlik qiladi.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti – to'qimachilik va charm sanoati fakulteti orqali teri, mo'yna, poyabzal va to'qimachilik texnologiyalari yo'nalishlarida kadrlar tayyorlaydi.

Namangan muhandislik-texnologiya instituti – to'qimachilik va yengil sanoat sohalarida texnologik mutaxassislarni yetishtiradi.

Turin politexnika universiteti (Toshkent) – Italiyaning ASSOMAC uyushmasi bilan hamkorlikda charm-poyabzal sanoati uchun sinov laboratoriyalari tashkil etish va ilg'or texnologiyalarni joriy etish rejalashtirilgan.

Kasb-hunar ta'limi va xalqaro loyihalar.

Germaniyaning GIZ tashkiloti ishtirokida to'qimachilik va charm sanoati bo'yicha kasb-hunar ta'limini rivojlantirish loyihalari amalga oshirilmoqda. Toshkent, Samarqand, Namangan va Nukus shaharlarida seminarlar, treninglar va metodik yordamlar tashkil etilmoqda. tvvet.edu.uz platformasi orqali kasbiy ta'lim resurslari kengaytirilmoqda.

Istiqboldagi rejalar.

2025-yilda eksport hajmini 4 mlrd AQSH dollariga, 2026-yilda 5 mlrd dollarga, 2027-yilda esa 7 mlrd dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlarining eksportdagi ulushini 70 foizga yetkazish, AQSH va Yevropa bozorlariga yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksportini 500 mln dollarga yetkazish maqsad qilingan. Ipkalava va gazlamalarni chuqur qayta ishlash uchun 5 mlrd dollargacha xorijiy investitsiyalar jalb etilishi ko'zda tutilmoqda. Texnologik modernizatsiya, dizayn va brendingni rivojlantirish, faktoring xizmatlari va qulay kreditlar orqali korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etiladi.

Charm sanoati.

2025-yilda charm mahsulotlari eksportini 250 mln dollarga yetkazish, tayyor mahsulotlar ulushini oshirish, Sharof Rashidov va Ohangaron tumanlarida ixtisoslashgan sanoat zonalarini tashkil etish, Turkiya va Yevropa kompaniyalari bilan qo'shma loyihalar amalga oshirish rejalashtirilgan. Moliyaviy imtiyozlar, past foizli kreditlar va subsidiyalar orqali sohani qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kengaytiriladi.

Texnologik taraqqiyot va kasblar transformatsiyasi.

Raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlari natijasida ayrim an'anaviy kasblar bosqichma-bosqich yo'qolib bormoqda. Jumladan, qo'lda ip yigiruvchilar, qo'lda to'quvchilar, charmni qo'lda ishlovchilar, qo'lda poyabzal tikuvchilar va naqsh soluvchilar o'rnini zamonaviy mashinalar va raqamli texnologiyalar egallamoqda.

Shu bilan birga, yangi kasblar shakllanmoqda:

- Raqamli dizaynerlar (3D modellash, CAD/CAM tizimlari),
- Texnologik muhandislar (avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari),
- Materialshunoslar (yangi to'qimachilik va charm materiallari),
- Ekologik standartlar bo'yicha mutaxassislar,
- Raqamli marketing mutaxassislari,
- Brend-menejerlar.

O'zbekistonning to'qimachilik va charm sanoati texnologik yangilanish, raqamlashtirish va global integratsiya jarayonlari ta'sirida jadal rivojlanmoqda. Bu jarayon yangi kasblar va yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyojni oshirmoqda. Shu bois ta'lim tizimini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish, kasbiy standartlar va tarmoq malaka ramkalari asosida kadrlar tayyorlash muhim strategik vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston to'qimachilik va charm sanoati tahliliy jadvali (2020–2025)

Yil	To'qimachilik eksporti (mln USD)	Charm eksporti (mln USD)	To'qimachilikda bandlik (ming kishi)	Charm sanoatida bandlik (ming kishi)
2020	1600	150	350	35
2021	2000	180	370	37
2022	2500	230	390	40
2023	3000	300	410	43
2025	3400	400	430	46
2025	4000	500	450	50

Yo'qolib borayotgan kasblar.

Qo'lda ip yigiruvchilar – avval paxtani qo'lda ipga aylantirish keng tarqalgan bo'lsa, hozirda bu jarayon to'liq avtomatlashtirilgan.

Qo'lda to'quvchilar – an'anaviy to'quv dastgohlar o'rnini zamonaviy to'qimachilik mashinalari egallagan.

Charmni qo'lda ishlovchilar – terini qo'lda tozalash va bo'yash ishlari endi sanoat uskunalari yordamida amalga oshirilmoqda.

Qo'lda poyabzal tikuvchilar – poyabzal ishlab chiqarish jarayoni avtomatlashtirilgan liniyalar orqali bajarilmoqda.

Qo'lda naqsh soluvchilar – dizayn va naqshlar endi kompyuter dasturlari yordamida yaratilmoqda.

Kelajakda paydo bo'lishi rejalashtirilgan kasblar

Raqamli dizaynerlar – to'qimachilik va charm mahsulotlarini yaratishda 3D modellash va raqamli dizayn bo'yicha mutaxassislar.

Texnologik muhandislar – zamonaviy ishlab chiqarish uskunalari boshqarish va texnologik jarayonlarni optimallashtirish bo'yicha mutaxassislar.

Materialshunoslar – yangi turdagi to'qimachilik va charm materiallarini ishlab chiqish va ularning xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullanuvchilar.

Ekologik standartlar bo'yicha mutaxassislar – ishlab chiqarish jarayonlarining ekologik xavfsizligini ta'minlash va xalqaro standartlarga muvofiqligini nazorat qiluvchilar.

Raqamli marketing mutaxassislari – to'qimachilik va charm mahsulotlarini onlayn platformalarda targ'ib qilish va sotishni tashkil etuvchilar.

Brendmenejerlar – mahalliy mahsulotlarni xalqaro bozorlarda tanitish va brend imidjini shakllantirish bo'yicha mutaxassislar.

O'zbekistonning to'qimachilik va charm sanoatida kasbhunarlar tarkibi texnologik yangiliklar va global tendensiyalar ta'sirida o'zgarib bormoqda. Bu esa yangi kasblar va mutaxassisliklarga ehtiyojni oshirmoqda. Agar siz ushbu sohalarda ta'lim olish yoki kasb tanlashni rejalashtirayotgan bo'lsangiz, zamonaviy texnologiyalar va raqamli ko'nikmalarga ega bo'lishingiz muhim ahamiyatga ega.

4. Tarmoqqa tegishli kasblar tahlili

MMKga muvofiq tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati quyidagi jadvalda keltiriladi:

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozimlari va kasblar nomi
1	11140001	Assotsiatsiya, federatsiya, konfederatsiya, filial, birlashma, ittifoq, jamoat tashkiloti boshqaruvi a'zosi
2	11140002	Assotsiatsiya, federatsiya, konfederatsiya, filial, birlashma, ittifoq, jamoat tashkiloti departamenti (boshqarma, bo'lim) boshlig'i (mudiri)
3	11140003	Assotsiatsiya, federatsiya, konfederatsiya, filial, birlashma, ittifoq, jamoat tashkiloti rahbari va uning o'rinbosarlari
4	11200004	Birlashma boshlig'i (direktori) va o'rinbosarlari
5	11200005	Birlashma raisi va o'rinbosarlari
6	11200006	Boshqaruv (korporatsiya, assotsiatsiya, bank, trest) raisi va o'rinbosarlari
7	11200010	Direktor va o'rinbosarlari
8	11200018	Ishlab chiqarish birlashmasi (bosh) direktori
9	11200023	Korxona bosh direktori (boshlig'i, boshqaruvchisi) va o'rinbosarlari
10	12120001	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (xizmat, qism) boshlig'i (mudiri)
11	12120005	Mehnat munosabatlari bo'yicha normativ-huquqiy tadqiqotlar laboratoriyasi boshlig'i
12	12120008	Xodimlar faoliyati samaradorligini (KPI) boshqarish bo'yicha rahbar
13	12210001	Iqtisodiy va sanoat zonalarini rivojlantirish bo'yicha (departament, boshqarma va bo'lim) rahbar
14	12210005	Mahsulot marketingi va sotuvi bo'yicha bo'lim (xizmat, qism) boshlig'i (mudiri)

15	12210006	Mahsulot marketingi va sotuvi sohasida departament (boshqarma) direktori (boshlig'i)
16	12210007	Marketing bo'lim (xizmat, qism) boshlig'i (mudiri)
17	12210008	Savdo/marketing sohasidagi direktor
18	12210009	Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha bo'yicha bo'lim (xizmat, qism) boshlig'i (mudiri)
19	12210010	Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida departament (boshqarma) direktori (boshlig'i)
20	13211004	Bosh dispetcher (sanoatda)
21	13211006	Bosh inspektor (sanoatda)
22	13211008	Bosh kolorist
23	13211009	Bosh konstruktor
24	13211012	Bosh mexanik (sanoatda)
25	13211013	Bosh modeler-konstruktor
26	13211014	Bosh muhandis
27	13211015	Bosh muhandis-mexanik
28	13211018	Bosh texnik rahbar
29	13211022	Ishlab chiqarish bo'yicha direktor
30	13211024	Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash bo'limi boshlig'i
31	13211025	Ishlab chiqarish sanoati sohasida boshqarma (bo'lim, bo'linma) boshlig'i (mudiri)
32	13211026	Ishlab chiqarish sanoatida (xizmat, guruh, sho'ba, sex, stansiya, punkt, uchastka, smena, ombor, otryad) boshlig'i (mudiri)
33	13211027	Ishlab chiqarish sanoatida laboratoriya boshlig'i (mudiri)
34	13211028	Ishlab chiqarish sanoatida usta
35	13211035	Navbatchi smena boshlig'i
36	13211038	Sifat nazorati inspeksiyasi bo'yicha rahbarlar
37	13211043	Texnik rahbar
38	13211045	Xavfsizlik xizmati boshlig'i (ob'ekt, uchastka)
39	13219016	Kiyim bosh konstruktori
40	13219017	Nazorat ustasi (sex, uchastka)
41	13241003	Bosh mexanik (moddiy-texnika ta'minoti va sotuv sohasida)
42	13241006	Jo'natish menejeri
43	13241007	Logistika bo'yicha menejer (logistik)
44	13241009	Material va uskunalar bilan butlash direktori
45	13241012	Ombor (tashish va saqlashni tashkil etish) mudiri
46	13241013	Ombor (yonuvchan, suyuq moddalar, yuk, moddiy-texnika ta'minoti va boshqalar) boshlig'i
47	13241016	Saqlash kamerasi mudiri
48	13241017	Sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish bo'yicha rahbarlar
49	13241020	Tovarlarni yetkazib berish, tashish, saqlash va tarqatishda (xizmat, guruh, sho'ba, smena, otryad) boshlig'i (mudiri)
50	13241021	Tovarlarni yetkazib berish, tashish, saqlash va tarqatishda boshqarma (bo'lim) boshlig'i (mudiri)
51	13460012	Ombor mudiri (lombard, moddiy boyliklar)
52	13460013	Sho'ba (sektor) mudiri
53	13490004	Bo'lim (bo'linma) boshlig'i (mudiri)

54	13490008	Bosh muhandis (boshqa sohalarda)
55	13490017	Ish yuritish bo'yicha mudir
56	14200004	Do'kon direktori
57	14200005	Kichik korxona direktori, egasi (boshqaruvchi) (savdoda)
58	14200006	Savdo bo'limi boshlig'i
59	14200007	Savdo laboratoriyasi boshlig'i
60	14200008	Savdo uyi direktori (boshlig'i)
61	14200009	Tijorat faoliyatida rahbar
62	14200010	Ulgurji va chakana savdo xizmati boshlig'i
63	14200012	Xarid bo'yicha direktor
64	14390009	Bosh modeler
65	21441001	Konstruktor-texnolog
66	21441004	Muhandis-konstruktor
67	21441005	Muhandis-mexanik (umumiy)
68	21442004	Sanoat uskunalari va asboblari bo'yicha muhandis
69	21442005	Sanoat uskunalariga mexanik xizmat ko'rsatish bo'yicha professional-mutaxassis
70	21442006	Sanoat uskunalarini yig'ish bo'yicha muhandis
71	21451001	Kimyo muhandisi
72	21451002	Kimyo texnologi
73	21493006	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha professional-mutaxassis
74	21493007	Mehnat xavfsizligi va muhofazasi muhandisi
75	21493010	Texnika xavfsizligi muhandisi
76	21493011	Yong'inga qarshi avtomatika muhandisi
77	21497001	Charm va uning o'rnini bosuvchi materiallardan mahsulot ishlab chiqarish sohasida muhandis
78	21497002	Charm, poyabzal va yengil sanoatda ilmiy xodimlar va ilmiy tadqiqotchilar
79	21497003	Ip-kalava va to'qimachilik ishlab chiqarish sohasida muhandis
80	21497004	Muhandis-baholovchi (-defektoskopchi, -operator, protezchi, texnolog-protezchi)
81	21497005	To'qimachilik mahsulotlari, charm, mo'yna va uning o'rnini bosuvchi materiallar ishlab chiqarishning kimyoviy texnologiyasi sohasida muhandis-tadqiqotchi
82	21497006	Trikotaj va to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida muhandis
83	21524003	Nazorat-o'lchov asboblari bo'yicha muhandis
84	21524004	Nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika sohasida ilmiy xodimlar va ilmiy tadqiqotchilar
85	21631001	Avtodizayner
86	21631002	Banknotlar va boshqa himoyalangan bosma mahsulotlar dizayneri
87	21631003	Dessinator
88	21631004	Gilam buyumlari dizayneri
89	21631005	Imidjmeyker
90	21631006	Keramika buyumlari dizayneri
91	21631007	Mebel dizayneri
92	21631008	Modeler
93	21631009	O'yinchoqlar dizayneri
94	21631010	Sanoat dizayneri

95	21631011	Sanoat mahsulotlari uchun illyustratori
96	21632001	Bosh kiyimlar dizayneri
97	21632002	Kiyim-kechak dizayneri
98	21632003	Kiyim-kechak konstruktori
99	21632004	Kiyim-kechak modeleri
100	21632005	Kostyumlar rassomi
101	21632006	Maxsus kiyimlar dizayneri (uniforma dizayneri)
102	21632007	Modeler-konstruktor
103	73172001	Novdadan badiiy buyumlar tayyorlovchi
104	73172002	Novdalardan to'qish bo'yicha hunarmand
105	73172003	Poxoldan badiiy buyumlar yasovchi
106	73172004	Qamishdan plitalar presslovchi
107	73172005	Qayin po'stlog'ini bichuvchi
108	73172006	To'qilgan mebellarni ishlab chiqaruvchi
109	73172007	To'qima mebellar to'quvchi (yig'uvchi)
110	73172008	Zig'ir tolasidan badiiy buyumlar yasovchi
111	73181001	Gilam tayyorlovchi hunarmand-ishchi
112	73181002	Gilamdo'z
113	73181003	Qo'lda gilam to'quvchi
114	73182001	Asos o'rovchi
115	73182002	Asos to'quvchi (kimyoviy ishlab chiqarish)
116	73182003	Asos to'quvchi (tekstil ishlab chiqarish)
117	73182004	Asosni haydovchi
118	73182005	Badiiy naqshli gazlamalardan buyumlar ishlab chiqaruvchi
119	73182006	Barabanlarni tarovchi
120	73182007	Festonlarni kesuvchi
121	73182008	Filtr o'rovchi
122	73182009	Gazlama tayyorlovchi hunarmand-ishchi
123	73182010	Gazlama yoyuvchi
124	73182011	Igna teshish agregatini to'ldiruvchi
125	73182012	Ip eshuvchi
126	73182013	Ip kesuvchi
127	73182014	Ip o'rovchi
128	73182015	Ip yegiruvchi
129	73182016	Ipni uskunadan yechib oluvchi
130	73182017	Jun mahsulotlarini bug'lovchi
131	73182018	Jun yuvuvchi
132	73182019	Lentani haydovchi
133	73182020	Matoga ishlov beruvchi
134	73182021	Naqshlarni kuydiruvchi
135	73182022	Paxta tushiruvchi
136	73182023	Paxta va po'stloqli o'simliklarni ishlov berishda xomashyo joylashtiruvchi
137	73182025	Pilla aralashtiruvchi
138	73182025	Pilla tahlili bo'yicha laborant
139	73182026	Pillani bug'lovchi
140	73182027	Pux va chiqindilarni tozalovchi
141	73182028	Shishametalli ip o'rnatuvchi
142	73182029	Shtapellovchi

143	73182030	Singdiruvchi tarkib tayyorlovchi
144	73182031	Suv berishni muvofiqlashtiruvchi
145	73182032	Tekstil chiqindilarini presslovchi
146	73182033	Tekstil ishlab chiqarishida tayyor maxsulotlarni presslovchi
147	73182034	Tekstil uskunalarini to'ldiruvchi
148	73182035	Tekstil xomashyosini joylashtiruvchi
149	73182036	Terilarni presslovchi
150	73182037	Texnik matolarni yuvuvchi
151	73182038	Texnologik uskunalarni to'g'rilovchi
152	73182039	Tish va halqalarni yig'uvchi
153	73182040	Tola materiallarini ishlov berish jarayonini nazorat qiluvchi laborant
154	73182041	Tolani tayyorlovchi
155	73182042	Tola va gazlamaga ishlov beruvchi
156	73182043	Tolaga ishlov beruvchi (galantereya ishlab chiqarish)
157	73182044	Tolaga ishlov beruvchi (zig'ir ishlab chiqarish)
158	73182045	Tolalarni aralashtiruvchi
159	73182046	Tolani uskunadan yechib oluvchi
160	73182047	To'r bo'luvchi
161	73182048	Xom ipakni chiqaruvchi
162	73182049	Xomashyo va tolalarni saralovchi
163	73182050	Xomashyo va tolani presslovchi
164	73182051	Xomashyoga ishlov beruvchi
165	73182052	Xomashyoni yuvuvchi
166	73182053	Xo'rda chiqindilarini tozalovchi
167	73182054	Yuvilmagan junni xillovchi
168	73183001	Charm bo'yovchi
169	73183002	Charm buyumlarga naqsh soluvchi
170	73183003	Charm detallarni to'g'rilovchi
171	73183004	Charm materiallarini jo'valovchi
172	73183005	Charm presslovchi
173	73183006	Charm prokatchi
174	73183007	Charm tortuvchi
175	73183008	Charm va mo'yna kesuvchi
176	73183009	Charm va mo'yna xomashyosiga ishlov beruvchi
177	73183010	Charm va mo'yna xomashyosini konservalovchi
178	73183011	Charm va mo'ynadan buyumlar briketlarini shakllantiruvchi
179	73183012	Charm va mo'ynadan buyumlar presslovchi (poyabzal ishlab chiqarishdan tashqari)
180	73183013	Charm va mo'ynadan buyumlar tayyorlash uchun xomashyoni yechuvchi
181	73183014	Charm va mo'ynadan buyumlar, yarim tayyor mahsulotlar va materiallarni silliqlovchi
182	73183015	Charm va mo'ynadan buyumlarni butlovchi
183	73183016	Charm va mo'ynadan tayyorlangan detallar, yarimtayyor mahsulotlar va buyumlarga ishlov beruvchi
184	73183017	Charm va mo'ynadan tayyorlangan detallar, yarimtayyor mahsulotlar va buyumlarni pardozlovchi (poyabzal ishlab chiqarishdan tashqari)
185	73183018	Charm yoyuvchi
186	73183019	Charm, mo'yna detallar va buyumlarni namlovchi

187	73183020	Charm, mo'yna xomashyosi va materiallarini o'lchovchi
188	73183021	Charmdan badiiy buyumlar tayyorlovchi
189	73183022	Charm-mo'yna xomashyosini saralovchi
190	73183023	Cho'tka va soch qaynatuvchi
191	73183024	Detallar va yarim tayyor mahsulotlar qalinligini to'g'rilovchi
192	73183025	Elaklovchi
193	73183026	Massa yopishtiruvchi
194	73183027	Mo'yna parchalarini qaynatuvchi
195	73183028	Teri va mo'yna kashtado'zi
196	73183029	Texnik terini qizdiruvchi
197	73183030	Xrom parchalarini neytrallovchi
198	73189001	Arqon buyumlar tayyorlovchi
199	73189002	Charm, mo'yna, gazlama va boshqalardan badiiy buyumlar va dekorativ predmetlarni qayta tiklovchi
200	73189003	Dissinator
201	73189004	Ko'rpa tayyorlovchi
202	73189005	Shtampovkachi (tekstil galantereyasi)
203	73189006	Tekstil-galantereya buyumlari trikotajchisi
204	73189007	To'r buyumlarni ta'mirlovchi
205	73189008	To'r materiallarini tayyorlovchi
206	73189009	To'r to'quvchi
207	73189010	To'rlarni qayta tiklovchi
208	73189011	Trikotajchi (qo'l ishlab chiqarishi)
209	73189012	Zig'ir tolasidan badiiy buyumlar tayyorlovchi
210	75310001	Bosh kiyim modelchisi
211	75310002	Bosh kiyimlar tayyorlovchi hunarmand
212	75310003	Bosh kiyimlarni qoliplovchi
213	75310004	Bosh kiyimni pardozirovchi
214	75310005	Buyumlarni pardozirovchi (sarrojlilik-egarchilik ishlab chiqarishi)
215	75310006	Kiyim tikuvchi (chevar)
216	75310007	Liboschi
217	75310008	Mo'ynado'z-bichuvchi
218	75310009	Mo'ynado'z-tanlovchi
219	75310010	Mualliflik kiyim va oyoq kiyim tayyorlash bo'yicha usta
220	75310011	O'simlik tolalarini presslovchi
